



## Turmush o'rtog'i bilan oilani birlashtirish maqsadida viza olish uchun kerakli hujjatlar haqida eslatma

### Umumiy eslatma:

- Barcha arizachilar arizalarni **shaxsan o'zlari** topshirishlari shart. **Qabulga ro'yxatdan o'tish faqat internet orqali elchihonaning qabulga yozilish tizimi orqali amalga oshiriladi.**
- **Oila birlashuvi** germaniya yoki chet el (Evropa Ittifoqi fuqarosi emas) fuqarosi bilan bo'lgan taqdirda Nemis tili bilimi A 1 darajasida mavjudligini tasdiqlash kerak.
- Ariza topshirish uchun asos bo'lgan qarindoshlik rishtalari mavjudligini fuqarolik holati dalolatnomalari asosida tasdiqlanishi lozim. Qoidaga muvofiq, O'zbekistonda berilgan fuqarolik holati bo'yicha guvohnomalar belgilangan jarayon asosida tekshirilishi lozim. Bu masala bo'yicha qarorni elchixona qabul qiladi. Viza bo'limiga takroriy murojat qilishingizni oldini olish maqsadida ariza taqdim etayotgan vaqtingizdayoq [„O'zbekiston Respublikasida berilgan hujjatlarning muvofiqligini tekshirish haqidagi eslatma“](#) da ko'rsatilgan barcha hujjatlarni, shu jumladan asl nusxalarini, topshirishni hamda kerakli garov pulini o'zbek so'mida olib kelishni maslahat beramiz. Chet elda berilgan nikoh haqida guvohnomalar ma'lum holatlarda legalizatsiya qilinishi yoki apostil qo'yilishi orqali ularning haqiqiyliги tasdiqlanishi lozim. Agar nikoh guvohnomangiz Evropa ittifoqi yoki O'zbekistonda berilmagan bo'lsa qabul vaqtini belgilashdan oldin [info@taschkent.diplo.de](mailto:info@taschkent.diplo.de) elektron pochta orqali ushbu hujjatning haqiqiy deb tan olinishi imkoniyati haqida ma'lumot olishingiz mumkin.
- Viza arizasi Germaniyadagi xorijliklar masalalari bo'yicha idoraga (Ausländerbehörde) qaror qabul qilish uchun yuboriladi. Shu sababga ko'ra Siz o'z arizangizda qarindoshingizning ismini to'g'ri va uning **to'liq manzilini** (ko'cha, pochta indeksi va turar joy nomini) ko'rsatishingiz lozim. Germaniya hududiga kirib kelishingiz bilan bu haqida yashash joyingizdagi xorijliklar masalalari bo'yicha mutassadi idoraga bevosita xabar berishingiz lozim. Ushbu idora Germaniya hududida qolishingiz uchun tegishli ruxsatnomani beradi.
- Arizani **ko'rib chiqish muddati** tajribaga muvofiq **6-8 haftani** tashkil etadi. Agar qaror qabul qilinishi oldidan hujjatlarni tekshirib chiqish lozim deb topilsa, ushbu muddat uzayadi.
- Arizangiz borasida qaror qabul qilingandan keyin elchixona xodimlari siz bilan bog'lanishadi. Rad javobi (elektron) pochta orqali yuboriladi yoki arizachi ushbu qarorni shaxsan o'zi olib ketishi mumkin.
- Voyaga yetmagan, birgalikda safarga chiqayotgan farzandlar uchun viza arizasini topshirishda „Bola(lar) bilan oilani birlashtirish maqsadida viza olish uchun kerakli hujjatlar, ayniqsa, yakka vasiylikni va og'ir vaziyatdan yechim topish doirasida safarni asoslovchi hujjatlar haqidagi tegishli eslatmalar bilan tanishib chiqishingizni so'raymiz
- Germaniya fuqarosi bo'lmagan shaxs bilan oila birlashishi uchun olinadigan viza badali 75 yevroni tashkil etadi. Viza badal to'lovi **o'zbek so'mida naqd pulda** amalga oshiriladi. Kupyuralar 2001 yildan eski bo'lmashligi, yaxshi holatda, muhr va yozuvlarsiz bo'lishi shart. Germaniya fuqarosining turmush o'rtog'i yoki umr yo'ldoshi visa badalini to'lashdan ozod etiladi.



**Ariza topshirish uchun quyidagi hujjatlar talab qilinadi:**

Eslatma: arizaga taaluqli hujjatlarning **DIN A4 formatidagi** nusxalarini quyidagi tartibda **sahifalarini biriktirmagan xolda ikkita to'liq to'plamga** ajrating. Uchinchi to'plam huddi shu tartibda, hujjatlarning aslidan iborat bo'lishi lozim. Hujjatlarning asli viza bo'limi tomonidan Sizga qaytariladi.

- Nemis tilida batafsil to'ldirilgan va imzolangan 2 ta viza ariza blanki** hamda 3 dona biometrik fotosurat. **(2ta fotosurat ariza blankiga yelimplangan bo'lishi kerak)**. Blankni elchixonaning internetdagi [www.taschkent.diplo.de](http://www.taschkent.diplo.de) web-sahifasidan olishingiz mumkin.
- Germaniya Federativ Respublikasi hududida istiqomat qilish shartlari haqidagi qonunning § 54, 2 abzatsi, 8 punkti hamda §53 ga muvofiq **imzolangan izoh**.
- Yana **kamida bir yil amal qilish muddatiga ega bo'lgan pasportingiz** va uning barcha sahifalaridan nusxasi
- Oilani birlashtirish uchun hujjat topshirayotgan arizachining **Germaniyada yashayotgan umr yo'ldoshining pasportining barcha sahifalaridan nusxa**. Agar umr yo'ldoshingiz chet el fuqarosi bo'lsa uning vaqtinachalik yashash uchun ruxsatnomasining nusxasi.
- O'zbekiston Respublikasida berilgan nikoh guvohnomasi va uning notarius tomonidan tasdiqlangan nemis tiliga tarjimasi** yoki Germaniyada/chet elda berilgan nikoh guvohnomasi.
- Nemis tilidan bilimga** (A1 darajasida) ega ekanlikni tasdiqlovchi hujjatlar; „Oila birlashishi uchun nemis tili bilimlarini tasdiqlash haqidagi“ alohida [eslatmaga](#) qarang.
- Germaniya Federativ Respublikasida bo'lish vaqtida doimiy amal qiladigan tibbiy sug'urta polisi. (ariza bo'yicha qarorni olishdan oldin taqdim etiladi).**